

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TA'LIM TIZIMIDA KOGNITIV FAOLLIKNI OSHIRISHGA QARATILGAN DASTURLAR MAZMUNI (AQSH VA SINGAPUR MISOLIDA)

Ismoilova Nozimaxon Umaraliyevna

NamDU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15867406>

Annotatsiya: Ushbu maqolada AQSh va Singapur ta'lim tizimida boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning individual salohiyatini erta aniqlash, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va kognitiv faolligini rag'batlantirishga qaratilgan dasturlar mazmuni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: iqtidorlilik konsepsiyasi, kognitiv faollik, individual yondashuv, "mastery learning", mustaqil ta'lim, o'zini boshqaruvchi o'qish, o'quvchiga yo'naltirilgan model.

Аннотация: В статье рассматривается содержание программ, направленных на раннее выявление индивидуального потенциала учащихся на этапе начального образования, развитие их интеллектуальных способностей и стимулирование познавательной активности в образовательных системах США и Сингапура.

Ключевые слова: концепция одаренности, познавательная активность, индивидуальный подход, «мастерское обучение», самостоятельное обучение, самонаправленное обучение, личностно-ориентированная модель.

Abstract: This article discusses the content of programs aimed at early identification of individual potential of students at the primary education stage, development of their intellectual abilities and stimulation of cognitive activity in the educational systems of the USA and Singapore.

Keywords: concept of giftedness, cognitive activity, individual approach, "mastery learning", independent learning, self-directed learning, student-centered model

Rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalari, xususan Web 2.0 servislari, o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularni interaktiv, ijodiy va mustaqil o'quv faoliyatiga jalb qilishda kuchli vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Bu servislar yordamida ona tili darslarining mazmuni multimodal, uslubi interaktiv, muhiti motivatsion, jarayoni esa kognitiv faol bo'lishi ta'minlanadi.

Iqtidorli bolalarga individual yondashuv zarurati AQSh ta'lim tizimida ayniqsa 1970-yillar boshida jiddiy muhokama qilina boshlandi. Bunga turtki bo'lgan asosiy omillardan biri — SSSRning 1960-yillar boshlarida va o'rtalarida erishgan yuksak ilmiy-texnikaviy, ayniqsa kosmik sohadagi yutuqlari bo'ldi. Ushbu muvaffaqiyatlar AQSh rahbariyatini ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish va raqobatbardoshlikni ta'minlashga majbur qildi. Natijada, bir qator yetakchi amerikalik olimlar ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan turli ilmiy-nazariy konsepsiyalarni ilgari surdilar. Shular ichida S.Marland, J.Renzulli, J.Gilford kabi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan "iqtidorlilik konsepsiyasi" alohida e'tibor qozondi.

Mazkur yondashuv, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning individual salohiyatini erta aniqlash, ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish va kognitiv faolligini rag'batlantirishga qaratilgan edi. Bunday yondashuvlar asosida maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkur doirasini kengaytirish, ularning muammoli vaziyatlarga nisbatan mustaqil fikrlash, izlanishga kirishish va bilimlarni chuqur anglab olishga bo'lgan ichki ehtiyojini rivojlantirish ustuvor maqsad sifatida belgilandi. Shunday

qilib, AQShda iqtidorli bolalar bilan ishlash konsepsiyasi nafaqat maxsus sinf yoki muassasalarda, balki umumta'lim maktablarining boshlang'ich bosqichida ham qo'llanila boshlandi. Bu esa, kognitiv faollikni rivojlantirishni butun ta'lim tizimi uchun ustuvor yo'nalish sifatida qarashga imkon berdi.

1972-yilga kelib AQSh Davlat departamentiga taqdim etilgan rasmiy hisobotda psixologlar iste'dodli bolalar umumiy ta'lim maktablarida ko'pincha salbiy psixologik muhitga duch kelishlarini, o'z tengdoshlari orasida ajralib turadigan aqliy darajasi sababli ijtimoiy izolyatsiyaga uchrashlarini yoki o'z salohiyatlarini to'laqonli namoyon eta olmasliklarini qayd etdilar. Ta'lim tizimining "o'rtacha" o'quvchiga moslashtirilganligi, standartlashtirilgan va "konveyer"ga asoslangan yondashuvlar kognitiv faollik darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilarning intellektual o'sishiga jiddiy to'siq bo'lgan.

Biroq, iqtidorli bolalar ta'limi sohasida olib borilgan tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish jarayoni AQShda deyarli 15 yillik tanaffus bilan kechdi. Bunga sabab, bir tomondan, o'qituvchilarning iste'dodli bolalar o'z yo'lini o'zi topadi degan noto'g'ri qarashlari, ikkinchi tomondan esa, ko'plab hududlarda pedagogik va psixologik tayyorgarlikning yetarli darajada emasligi bo'ldi. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchilarning kognitiv jihatdan murakkab bo'lgan o'quvchilarga individual yondashuv bilan ishlash salohiyati past bo'lgan.

Faqat 1980-yillarning o'rtalariga kelib iqtisodiy inqirozdan chiqish boshlanganidan so'ng, davlat tomonidan iste'dodli bolalar bilan ishlashga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. Indiana, Konnektikut, Kaliforniya, Florida kabi shtatlardagi universitetlar huzurida iqtidorli bolalarni aniqlash va ularni o'qitishga oid ilmiy markazlar tashkil etildi. "Gifted child today", "Gifted education international", "Educational researcher" kabi maxsus ilmiy jurnallar nashr etila boshlandi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf darajasida o'quvchilarning kognitiv faolligini rag'batlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqildi va mahalliy ta'lim muassasalari bu yo'nalishga faol jalb etildi.

1991-yilda prezident Jorj Bush-otasining "Amerika-2000. Ta'lim strategiyasi" nomli dasturida yangi avlod maktablarini tashkil etish g'oyasi ilgari surildi. Bu maktablar Amerika yoshlarining ijodiy salohiyatini maksimal darajada ochib berishga qaratilgan edi. Ushbu tashabbus doirasida iqtidorli bolalarga yo'naltirilgan alohida sinflar, maxsus dasturlar va "differensial o'qitish" tizimi joriy qilindi. Aynan shu tizim o'quvchilarning ta'limga tayyorgarlik darajasi va motivatsiyasiga qarab ularni guruhlariga ajratishga asoslanadi. Bu esa, yuqori kognitiv faollikka ega boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yanada moslashtirilgan o'quv sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi.

Umumiy ta'lim maktablarida "o'rganish darajalari" modeli joriy etilgan bo'lib, bu orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos murakkablik darajasidagi materialni o'zlashtiradi. Iqtidorli o'quvchilar eng yuqori darajadagi topshiriqlar bilan shug'ullanadilar, ularga o'zlari tanlagan fanlar bo'yicha mustaqil tadqiqot olib borish uchun umumiy dars vaqtining 20 foizigacha ajratiladi. Masalan, Kaliforniyada 20 tagacha o'rganish darajalari mavjud.

Bunday tizim boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular murakkab muammolarni hal qilish, tadqiqot olib borish, mustaqil o'qish va o'zini baholash ko'nikmalarini erta bosqichdanoq shakllantiradilar. O'quv dasturlari ko'pincha maxsus pedagogik kengashlar tomonidan ishlab chiqiladi va ular odatiy dasturlardan mazmun, metod va o'qitish texnologiyalari jihatidan farq qiladi. Mashg'ulotlarda

guruhiy faoliyat, mustaqil izlanishlar, ochiq metodlar, erkin tanlov va ilg'or konseptual tahlillar qo'llaniladi.

Bundan tashqari, AQSh maktablarida individual yondashuv alohida o'rin tutadi. Bu yondashuvlar "mastery learning" (to'liq o'zlashtirish usuli) tamoyiliga asoslanadi. Unda har bir o'quvchining bilim darajasiga moslashtirilgan holda o'quv maqsadlari, materiallar va baholash tizimi ishlab chiqiladi. O'quvchilar bilimni o'ziga qulay usullar orqali o'zlashtiradi, o'qituvchi esa individual maslahatchi sifatida faoliyat yuritadi.

Kognitiv faolligi yuqori bo'lgan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan shaxsga yo'naltirilgan dasturlar quyidagi shakllarda qo'llaniladi:

Mustaqil ta'lim – o'quvchi o'zi mavzu va metodni tanlaydi, o'qituvchi esa yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

O'zini boshqaruvchi o'qish – mavzu va maqsadni pedagog belgilaydi, metodni o'quvchi tanlaydi;

O'quvchiga yo'naltirilgan model – o'quvchi mavzuni va vaqtni tanlaydi, metodika pedagog tomonidan belgilanadi.

Umuman olganda, AQShdagi iqtidorli bolalarni o'qitish tizimi nafaqat ularning bilim olish jarayonini osonlashtirishga, balki kognitiv mustaqillik, ijodiy tashabbuskorlik va intellektual izlanishga bo'lgan ichki ehtiyojni rag'batlantirishga qaratilgan bo'lib, bu jihatlar boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq barpo etiladi.

Singapur – bu ta'lim tizimi ikki xil mantiqni bir vaqtning o'zida uyg'unlashtirgan noyob mamlakatdir. Uning ta'limi mustahkam milliy asoslarga, an'anaviy qadriyatlar va madaniy normalarga tayanadi, shu bilan birga, global mehnat bozoriga yo'naltirilgan va xalqaro darajadagi malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. So'nggi o'n yilliklarda Singapurda yuz bergan jadal ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot fonida ta'lim sohasi davlatning eng konservativ institutlaridan biri bo'lib qolgan¹. Biroq aynan shu institut dunyodagi agrar va industrial inqiloblarga, diniy qadriyatlar ta'sirining pasayishiga moslashishga, shuningdek, zamonaviy bosma va audiovizual texnologiyalarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Shubha yo'qki, Singapur ta'lim tizimi bugungi globallashtirish iqtisodiyot sharoitidagi yangi chaqiriqlarga ham samarali javob bera oladi va buni amalga oshirar ekan, milliy qadriyatlarga sodiqligicha qoladi.

Ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun Singapurning ta'lim tizimi, eng avvalo, dunyodagi eng ilg'or va samarali tizimlardan biri sifatida baholanishi bilan ahamiyatlidir. Birinchidan, PIRLS (Xalqaro o'qish savodxonligini baholash dasturi) tadqiqotlariga ko'ra, Singapur aholisi orasida funksional savodxonlik darajasi dunyodagi eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. Ikkinchidan, TIMSS (Xalqaro matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni baholash dasturi) natijalariga muvofiq, 1995-yildan buyon Singapur o'quvchilari matematika va tabiiy fanlar bo'yicha doimiy ravishda eng yuqori natijalarni ko'rsatib kelmoqda².

Uchinchidan, nufuzli McKinsey & Company konsalting kompaniyasi 2008-yilda Singapur ta'lim tizimini jahonda eng samarali deb e'lon qilgan. Ayniqsa, bu bahoda o'qituvchilarni tayyorlash tizimining puxtaligi va mukammal tashkiliy modeli alohida ta'kidlangan.

¹ Gardner H. (2004) How education changes: Considerations of history, science and values // Globalization: Culture and education in the new millennium. / M. Suarez-Orozco, D. Qin-Hilliard (ets). Berkeley: University of California Press. P. 213–225.

² Singapore Ministry of Education Press Release. MOE Launches Third Masterplan for ICT in Education. URL: <http://www.moe.gov.sg/media/press/2008/08/moe-launches-third-masterplan.php>

To'rtinchidan, IMD (Xalqaro menejment rivoji instituti) tomonidan 2007-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar Singapur ta'lim tizimini zamonaviy global iqtisodiyot talablariga eng yaxshi moslasha olgan ta'lim modeli sifatida e'tirof etgan.

Bu omillar Singapurda ta'lim sifati, kognitiv salohiyatni rivojlantirish va ilg'or o'qitish texnologiyalarining uyg'unligini ta'minlash orqali boshlang'ich bosqichdanoq o'quvchilarning funksional savodxonligini, mantiqiy fikrlashini va muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, Singapur tajribasi boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish yo'nalishida o'rganish va amaliyotga tatbiq etish uchun muhim ilmiy-metodik manba hisoblanadi.

Odatda Singapurda o'qituvchilar 60–62 yoshda pensiyaga chiqadilar, biroq ta'lim faoliyati bilan shug'ullanish uchun yoshi bo'yicha qat'iy cheklovlar mavjud emas. Shunga qaramay, amaliyotda o'qituvchilarning o'rtacha yoshi 34 yoshni tashkil etadi³. Bu esa ta'lim tizimining yosh va intiluvchan kadrlar bilan doimiy ravishda to'ldirib borilayotganidan dalolat beradi.

Singapurda o'qituvchilar ta'lim sohasidagi uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyiliga qat'iy amal qiladilar. O'qituvchi bo'lish uchun milliy darajadagi tayyorgarlik muassasasi bo'lgan Milliy Ta'lim Instituti (National Institute of Education)ni tamomlagan pedagoglar o'z kasbiy faoliyatlari davomida bu muassasaga bir necha bor qaytib, malaka oshirish kurslarida ishtirok etadilar. Ushbu tizim o'qituvchilarning kognitiv salohiyati, kasbiy refleksiya va ta'limda zamonaviy yondashuvlarni egallashlarini ta'minlaydi.

Malaka oshirish tizimi uch asosiy yo'nalish bo'yicha tashkil etilgan:

1. Pedagogik yo'nalish — bu yo'nalish maktabda uzoq muddat faoliyat yuritishni, o'z maktabi yoki ta'lim klasteri doirasida qo'shimcha mas'uliyatlarni o'z zimmasiga olishni istagan o'qituvchilar uchun mo'ljallangan. Ular malaka oshirish kurslari, yosh pedagoglarga murabbiylik qilish, o'quvchilarning kognitiv faolligini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalarni joriy etish bilan shug'ullanadilar.
2. Mutaxassislik (spetsialitet) yo'nalishi — bu guruhda qatnashayotgan o'qituvchilar, odatda, Ta'lim vazirligida ishlash, ta'lim siyosatini ishlab chiqish, o'quv standartlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etish kabi faoliyatlarni amalga oshiradilar. Ularning vazifasi kognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi strategiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.
3. Liderlik yo'nalishi — bu yo'nalish rahbarlik lavozimlariga intilayotgan (sikllar rahbari, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, maktab direktori va boshqalar) pedagoglar uchun mo'ljallangan. Ular ta'lim jarayonini boshqarish, o'qituvchilar jamoasi salohiyatini rivojlantirish va maktab miqyosida innovatsion metodlarni tatbiq etish orqali kognitiv faol muhitni shakllantirishda ishtirok etadilar.

Singapurdagi ushbu tizimli yondashuv o'qituvchilarni nafaqat doimiy rivojlanishga, balki boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yuqori darajadagi kognitiv faollikni ta'minlay oladigan ta'lim muhitini yaratishga ham yo'naltiradi.

³ Redpath J. Report on the Singapore group visit 2008. [URL:www.ltscotland.org.uk/Images/JohnRedpathFR_tcm4-555580.doc](http://www.ltscotland.org.uk/Images/JohnRedpathFR_tcm4-555580.doc)

Turli davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish — bu intellektual salohiyatni erta aniqlash, uni tizimli qo'llab-quvvatlash va istiqbolli shaxsni shakllantirishning kalit omilidir

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gardner H. (2004) How education changes: Considerations of history, science and values // Globalization: Culture and education in the new millennium. / M. Suarez-Orozco, D. Qin-Hilliard (ets). Berkeley: University of California Press. P. 213–225.
2. Singapore Ministry of Education Press Release. MOE Launches Third Masterplan for ICT in Education. [URL:http://www.moe.gov.sg/media/press/2008/08/moe-launches-third-masterplan.php](http://www.moe.gov.sg/media/press/2008/08/moe-launches-third-masterplan.php)
3. Redpath J. Report on the Singapore group visit 2008. [URL:www.ltscotland.org.uk/Images/JohnRedpathFR_tcm4-555580.doc](http://www.ltscotland.org.uk/Images/JohnRedpathFR_tcm4-555580.doc)
4. College Board. Advanced Placement report to the nation 2006. N. Y., 2006.
5. Welcome to Korean Minjok Leadership Academy, 2007. Электронная версия: <http://www.minjok.hs.kr>



INNOVATIVE
ACADEMY